O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
_______________
Samarqand iqtisodiyot va servis intituti
rektori M.E.Po‘latov
2023 yil «29» 08

Ro’yxatga olindi: №BD-60410400-2.3
2023 yil “29” 08

# BOJXONA ISHI

## O‘QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 400000 | – Biznes, boshqaruv va huquq |
| **Ta’lim sohasi:** | 410 000 | – Biznes va boshqaruv |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60410400 | – Moliya va moliyaviy texnologiyalar |

Samarqand – 2023

| | Fan/modul kodi<br>CUSCAS04 | O‘quv yili<br>2023-2024 | Semestr<br>3 | Kreditlar<br>4 |
|---|---|---|---|---|
| | Fan/modul turi<br>Tanlov | Ta’lim tili<br>O‘zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari<br>4 |
| 1. | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta’lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | **Bojxona ishi** | 60 | 60 | 120 |

2.

**I. Fanning mazmuni**

Bugungi kundagi iqtisodiyot tarkibini tubdan o‘zgartirish, uni diversifikatsiyalash va modernizatsiya qilish, islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish sharoitida marketing sohasidagi andozalarni mamlakatimiz ta’lim tizimida qo‘llash bo‘yicha ishlarni olib borish hozirgi kunning eng dolzarb masalasi bo‘lib hisoblanadi.

Xalqaro savdoni globallashuvi tashqi savdo siyosati vositalaridan foylanishni yanada takomillashtirishni, ya’ni xalqaro savdoni tartibga solishda notarif usullaridan tarif usullariga o‘tishni taqazo etayapti. Bu esa tarif usullarining bevosita amaliyotda qo‘llovchi bojxona ishini, uning asosiy tashkil etuvchilarini, asosiy tamoiyllari va qoidalarini o‘rganishga bo‘lgan e’tiborni oshiradi

«Bojxona ishi» fanini o‘qitishdan maqsad talabalarda tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda bojxona ishini tutgan o‘rni, bojxona chegarasi orqali olib o‘tilayotgan tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o‘tkazishni, ulardan bojxona qonunchiligida belgilangan bojxona to‘lovlarini undirilishini ob’ektivligini ta’minlashni, kontrabanda va bojxona qoidalarini buzilishiga qarshi kurashni, bojxona ishi bo‘yicha xalqaro hamkorlikni, bojxona xizmati uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishni, mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishidagi ahamiyati to‘g‘risida, nazariy va amaliy bilimlar hosilqilishdan iboratdir. Fanni o‘qitilishining asosiy vazifalari O‘zbekiston Respublikasining hozirgi iqtisodiy rivojlanishini, xalqaro hamjamiyat bilan o‘zaro savdo iqtisodiy aloqalarini kengayishi sharoitida respublikamiz bojxona organlarining faoliyatini Jahon amaliyotida qabul qilinan me’yorlar asosida takomillashtirishni zarurligi to‘g‘risida talabalarda ilmiy izlanishlar olib borishga qiziqish uyg‘otish.

| | |
|---|---|
| 3. | **II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**<br>**II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**<br>**1-mavzu. Bojxona ishi fanining predmeti va vazifalari.**<br>Bozor iqtisodiyotining rivojlanib borishi xalqaro iqtisodiy munosobatlarni davlat tomonidan tartibga solish ahamiyatini oshirib bormoqda. Ushbu faoliyatning asosiy yo'nalishi milliy chegaralardan tovar va yuk tashish transportlarning o'tishini nazorat qilish bilan bog'liq, ya'ni bojxona xizmatlarini takomillashtirish bilan bog'liq. Ushbu faoliyatning samaradorlik xar bir korxona yoki tashqi iqtisodiy aloqalar sub'ekti tomonidan bojxona qoidalariga qat'iy rioya qilishga bevosita bog'liqdir. SHu sababli «Bojxona ishi», asosiy maqsadlariga bo'lajak mutaxassislarga tovarlar, xizmatlar eksporti va import jarayonida vujudga keladigan munosobatlarni o'rganish kiradi.<br>Fanni o'zlashtirishda yangi texnologiyalardan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliyot darslarida interaktiv usullardan, turistik mahsulotlar, mexmonxona dizayin, marketing-axborot ko'rsatkichlari, mexmonxonalar ifodalangan plakatlar, bukletlar, slaydlar, videoma'ruzalar, rangi rasm va jadvallardan foydalaniladi.<br>«Bojxona ishi» fani «Global marketing», «Strategik marketing», «Menejment», «Marketing», «Marketing kommunikatsiyalari», «Xalqaro turizm», «Birja ishi», «Marketing tadqiqotlari» va shu kabi boshqa fanlar bilan bog'liqdir.<br><br>**2-mavzu. O'zbekiston Respublikasida bojxona xizmatining tashkil etilishi va rivojlanish tarixi**<br>Bojxona faoliyatiga oid qonunlar. Bojxona kodeksi. Bojxona xududi va bojxona chegarasi tushunchasi. Bojxona faoliyatining tashkil etilishi. Bojxona xizmatlari tizimi. CHegara qo'shinlari. Davlat bojxona xizmati vazifalari. Bojxona xizmat vazifalarining joylarda bajarilishini ta'minlash. Bojxona organlarining huquqlari. Bojxona organlarining majburiyatlari.<br>Bojxonaning davlat byudjetini shakllantirishdagi o'rni. Bojxonaning valyuta zaxiralarini yaratish va milliy boyliklarni saqlab qolishdagi o'rni.<br><br>**3-mavzu. Bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o'tkazish**<br>Tovar va tronsport vositalarining bojxona chegarasidan olib o'tish tamoiyllari. Bojxona deklaratsiyasi tovar va transport vositasi deklaranti. Tashuvchi tovar va transportni chiqib ketishga ruxsat berish. Tovar transportni kirib kelishini tashkil qilish. Bojxona rasmiylashtiruvi. Jismoniy shaxslarning bojxonada rasmiylashtiruvi. Valyuta va valyuta boyliklarini olib o'tish.<br><br>**4-mavzu. Bojxona rejimlari va ularni qo'llash shartlari**<br>Bojxona rejimlari tushunchasi. Bojxona rejimlarining huquqiy maqomi. Bojxona rejimlarining turlari, alohida rejimlarning xususiyatlari: import, reimport, eksport, rejeport, tranzit, vaqtincha olib kirish, vaqtincha saqlash, |

| | |
|---|---|
| | bojxona ombori, erkin bojxona zonasi, bojxona nazorati ostida qayta ishlash va xokazo. Bojxona rejimlarini o'zgartirish tarkibi. Bojxona rejimlarini tanlash.<br><br>**5-mavzu. Bojxona nazoratining tamoyillari va shakllari**<br>Bojxona nazorati mazmuni. Bojxona nazoratini amalga oshiruvchi shaxslar. Bojxona nazorati zonalari. Bojxona nazorati ob'ektlari. Bojxona ko'rigidan o'tkazish. Bojxona nazorati ostidagi tovar va transport vositalarini inventarizatsiyalash. Bojxona nazoratini tanlab o'tkazish. Nazoratdan ozod qilish. Bojxona nazoratining texnika vositalari. Texnika vositalarining turlari. O'zbekiston Respublikasi bojxona tizimida qo'llanilayotgan vositalar va ularni yanada takomillashtirish masalalari. Bojxona nazorati tizimida ekspertiza. Ekspertiza uning tushunchasi, sinflanishi va ekspertiza o'tkazish tashkilotlari. Bojxona ekspertizasini o'tkazishda texnik vositalar va usullar.<br><br>**6-mavzu. Tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazishda bojxona yuk bayonnomasini qo'llash.**<br>Bojxonada rasmiylashtirish mazmuni, amalga oshirish joyi va muddatlari. Bojga oid rasmiylashtirishni amalga oshirish tartibi. Bojxonada rasmiylashtirishi uchun zarur xujjatlar. Bojxonada rasmiylashtirish jarayonida nazoratni amalga oshirish. Bojxona deklaratsiyasining mazmuni va undagi ma'lumotlar. Vaqtinchalik saqlash omborlarning turlari.Deklarant, uning huquqlari va majburiyatlari. Tashuvchining huquq va majburiyatlari. Bojxona brokeri.<br><br>**7-mavzu. Bojxona organlari faoliyatida soliqlar, bojxona to'lovlari va yig'imlarning tutgan o'rni.**<br>Bojxona to'lovlarining davlat iqtisodiy siyosatidagi o'rni va ahamiyati. Bojxona to'lovlarining mohiyati va turlari. Boj, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i. Bojxona yig'imlari. Bojxona to'lovlarini amalga oshirish muddatlari.<br>Bojxona to'lovlarini hisoblash va to'lash. Bojxona to'lovlarini to'lash tartibi va muddati. Bojxona to'lovlarining to'lovlarini ta'minlash. Bojxona to'lovlarini majburiy undirish.<br><br>**8-mavzu. Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi**<br>Tovar nomenklaturasining umumiy tavsifi. Tovar va transport vositalarining bojxona nazoratida identifikatsiyalash zarurati. O'zbekiston Respublikasida TIF tovar nomenklaturasining tutgan o'rni.Tovarlarning kodini aniqlash. Tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasi. Uyg'unlashgan tovar nomenklaturasi tovar ishlab chiqarilgan mamlakat kodi. Tovar kodining asosiy bo'g'inlari: mamlakat, tovar guruhi, tovar turi, xususiyatlari, korxona kodi. Tovar nomenklaturasining qo'llanishi.<br><br>**9-mavzu. Bojxona chegarasi orqali jismoniy shaxslar tomonidan olib o'tilayotgan tovarlarning bojxona nazorati. Valyuta nazorati** |



| | |
|---|---|
| **8.** | Fan dasturi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O'quv uslubiy kengashining 2023 yil "29" 08 dagi 1 - sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan. (№ FD-07-13 ). |
| **9.** | **Fan/ modul uchun mas'ul:**<br>**Sh.A.Musayeva** – SamISI, "Marketing" kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari nomzodi. |
| **10.** | **Taqrizchilar:**<br>**I.A.Usmanov** – SamDAQU, "Qurilish iqtisodiyoti va menejment" kafedrasi professor v.b., i.f.n.<br>**I.X.Nasimov** – SamDU, "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasi dotsenti, PhD. |

| | |
|---|---|
| | o‘rganish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. (malaka)** |
| **5.** | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma’ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyilalar;<br>• loyiha tahlili;<br>• misol va masalalar;<br>• jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **6.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish. |
| **7.** | **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**<br>**Asosiy adabiyotlar.**<br>1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston, 2014 y. 40bet.<br>2. O‘zbekiston Respublikasi bojxona kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2016 yil 27 yanvar.<br>3. O‘zbekiston Respublikasining “Soliq maslahatiga oid faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni, -T.: Xalq so‘zi, 2022 yil, 04 avgust.<br>4. “O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi **O‘RQ-748**-son Qonun 01.02.2022 y.<br>5. Xasanov O.A., Karimqulov Q.M., Abdug‘aniev B.YO., I.R.Asqarov Bojxona ekspertizasi Darslik Toshkent: «Fan va texnologiyalar markazi», 2012 yil, - 312 bet.<br>6. Pardaev T.N.,Suyunov A.M., SHadmankulov A.A.” Bojxona qiymati” Toshkent- “ Barkamol fayz media” 2016.<br>7. А.А. Демичев, А.С. Логинова “ОСНОВЫ ТАМОЖЕННОГО ДЕЛА”, учебник Санкт-Петербург ИТС «Интермедия» 2014<br>8. Налоги и налогообложение: учеб. /Под ред. И.А. Майбурова. – М.: ЙУНИТИ-ДАНА, 2010. – 559 с.<br>9. Никулкина И.В. Общая теория налогообложения: учеб. пособ. – М.: Ексмо, 2010. – 176 с.<br>**Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>1. Хайдаров В.Х. Международное таможенное право. - Т. Адолат, 2000<br>2. Додобоев ЙУ.Т.Таможенное право Республики Узбекистан част 2-Т, «Фан», 1999-131 с.<br>3. Додобаев ЙУ.Т., Ахмедов Д.К. Таможенный брокер. Т., КУНПСП, 2001 г.<br>4. “Soliq va bojxona habarlari” gazetasining joriy yildagi sonlari. |



| | |
|---|---|
| | Jismoniy shaxslar tomonidan olib o‘tilayotgan tovarlarning bojxona nazorati. CHet el shaxslarga nisbatan bojxona nazoratini amalga oshirish.<br>Bojxona imtiyozlari va to‘lovlarning stavkalari. CHet ellik shaxslarning imtiyozga ega bo‘lgan toifalarning turlari. Bojxona nazoratidagi imtiyozlar turlari. Boj imtiyozlarining berilish tarkibi. Diplomatiya vakolatxonalariga imtiyozlar. Delegatsiya a’zolariga imtiyozlar. Valyuta siyosati va valyutani tartibga solish. O‘zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish.<br><br>**10-mavzu. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish tizimida tarif usullari.**<br>Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish tarif usullari. O‘zbekiston Respublikasida boj tarifini shakllantirish va qo‘llash. Boj tarifi mohiyati. Boj stavkalarining turlari: qiymatga nisbatan, tovar birligiga nisbatan va advalar stavkalar. Boj stavkalarining turlari. Boj stavkalarining qo‘llash shartlari. Boj stavkalarining asosiy me’yorlari. Tarif preferensiyalari va imtiyozlari. Boj undirishdan ozod qilish. Bojxona bojlarini shakllantirishda valyuta fondi va boshqa xalqaro mintaqaviy tashkilotlarining tutgan o‘rni.<br><br>**11-mavzu. Bojxona organlari faoliyatida notarif tartibga solish usullaridan foydalanish**<br>Notarif cheklashlarning asosiy tushunchasi. Bojxonada qo‘shimcha to‘lovlar.Notarif cheklashlarning milliy eksportga ta’siri. Bojxona haqadagi qonun xujjatlarini buzish. Bojxona tarkibini buzish. YUridik shaxslarning javobgarligi. Fuqarolar va mansaabdor shaxslar javobgarligi. Tadbirkorlikning javobgarligi. Deklarant javobgarligi. Tashuvchi javobgarligi<br><br>**12-mavzu. Tovarlarning bojxona qiymati va uni aniqlash usullari**<br><br>Bojxona qiymati. Bojxona baxosi. Tovarning bojxona bahosini aniqlash. Bojxona qiymati deklaratsiyasi va bojxona bahosi. Bojxona qiymatini belgilashda deklarantning huquq va majburiyatlari. Bojxona baxosida qo‘llaniladigan usullar: bitim qiymati usuli, aynan bir xil tovar yuzasidan o‘tkazilgan bitim usuli, qiymatlarni chegirib tashlash usuli, qiymatlarni qo‘shish usuli, rezerv usuli. Bojxona qiymati deklaratsiyasini to‘ldirish. Tovarni ishlab chiqarish joyini aniqlash.<br><br>**13-mavzu. Bojxona organlarining huquqiy himoya qilish sohasidagi faoliyati**<br>Davlat bojxona organlari komplektatsiyasi. Bojxona organlarining mansabdor shaxslari. Mansabdor shaxslarni tayinlash. Bojxonada kadrlar tarkibi va ularning unvonlari. Mansabdor shaxslarni ijtimoiy ximoya qilish. Davlat bojxona organlarining hukumat va boshqaruv organlari shuningdek huquqtarg‘ibot organlari bilan aloqasi. Bojxona organlari uchun kadrlarni |

tayyorlash. Kadrlarni qayta o'qitish va malakasini oshirish tizimi. Intizomiy va ma'muriy ovozalash. Bojxona kadrlar attestatsiyasi. Bojxona organlarining kontrabanda va bojxona qoidalarini buzishini oldini olishdagi o'rni. Kontrabanda tushunchasi va uning turlari. Kontrabanda ob'ektlari va jinoyatning sub'ektiv tomonlari. . Kontrabanda yo'li bilan tovarlarni olib o'tish bo'yicha javobgarlik. Qonun buzilishi bo'yicha surishtiruv olib borish.

**14-mavzu. Bojxona statistikasi bojxona ishi asoslarining tarkibiy qismi**

Bojxonaga oid ma'lumotlar va ularning ahamiyati. Bojxona statistikasi tamoyillari. Bojxona statistikasining asosiy vazifalari. Bojxona statistikasini o'rganish ob'ektlari. Bojxona statistikasi ko'rsatkichlari. Bojxona statistikasiga oid axborotlar majmuasi. Axborotlarni to'plash tizimi. Axborotlarni qayta ishlash tizimi. Axborotlarni saqlash. Davlat siri hisoblanadigan axborotlarni ajratish. Bojxona statistikasini e'lon qilish. Maxsus bojxona statistikasi.

Bojxona ishini rivojlantirish yo'llari. Bojxona faoliyatida xalqaro xamkorlik. Boj tarifini takomillashtirish yo'llari. Bojxona ishini tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qilishi.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Bojxona ishi fanining predmeti va vazifalari.
2. O'zbekiston Respublikasida bojxona xizmatining tashkil etilishi va rivojlanish tarixi
3. Bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o'tkazish
4. Bojxona rejimlari va ularni qo'llash shartlari
5. Bojxona nazoratining tamoyillari va shakllari
6. Tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazishda bojxona yuk bayonnomasini qo'llash.
7. Bojxona organlari faoliyatida soliqlar, bojxona to'lovlari va yig'imlarning tutgan o'rni.
8. Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi
9. Bojxona chegarasi orqali jismoniy shaxslar tomonidan olib o'tilayotgan tovarlarning bojxona nazorati. Valyuta nazorati
10. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish tizimida tarif usullari.
11. Bojxona organlari faoliyatida notarif tartibga solish usullaridan foydalanish
12. Tovarlarning bojxona qiymati va uni aniqlash usullari
13. Bojxona organlarining huquqiy himoya qilish sohasidagi faoliyati
14. Bojxona statistikasi bojxona ishi asoslarining tarkibiy qismi

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem. guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim.



Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustakil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Bojxona ishi fanining predmeti va vazifalari.
2. O'zbekiston Respublikasida bojxona xizmatining tashkil etilishi va rivojlanish tarixi.
3. Bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o'tkazish.
4. Bojxona rejimlari va ularni qo'llash shartlari.
5. Bojxona nazoratining tamoyillari va shakllari.
6. Tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazishda bojxona yuk bayonnomasini qo'llash.
7. Bojxona organlari faoliyatida soliqlar, bojxona to'lovlari va yig'imlarning tutgan o'rni.
8. Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi.
9. Bojxona chegarasi orqali jismoniy shaxslar tomonidan olib o'tilayotgan tovarlarning bojxona nazorati. Valyuta nazorati.
10. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish tizimida tarif usullari.
11. Bojxona organlari faoliyatida notarif tartibga solish usullaridan foydalanish.
12. Tovarlarning bojxona qiymati va uni aniqlash usullari.
13. Bojxona organlarining huquqiy himoya qilish sohasidagi faoliyati.
14. Bojxona statistikasi bojxona ishi asoslarining tarkibiy qismi.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

4. **V. Ta'lim natijalari . Kasbiy kompetensiyalari**

**Talaba bilishi kerak:**

• bojxona to'lovlarining davlat iqtisodiy siyosatidagi o'rni va ahamiyati. Bojxona to'lovlarining mohiyati va turlari. Boj, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i. Bojxona yig'imlari. Bojxona to'lovlarini amalga oshirish muddatlari. Bojxon to'lovlarini to'lash tartibi va muddati, keng doirali masalalarni o'rgatish kategoriyalari *bo'yicha **tasavvurga ega bo'lishi;*** **(bilim)**

• bojxona qiymati. Bojxona baxosi. Tovarning bojxona bahosini aniqlash. Bojxona qiymati deklaratsiyasi va bojxona bahosi. Bojxona qiymatini belgilashda deklarantning huquq va majburiyatlari. Bojxona baxosida qo'llaniladigan usullarni qo'llay ***bilishi va ulardan foydalana olishi;*** **(ko'nikma)**

• tovar va tronsport vositalarining bojxona chegarasidan olib o'tish tamoiyllari. Bojxona deklaratsiyasi tovar va transport vositasi deklaranti. Tashuvchi tovar va transportni chiqib ketishga ruxsat berish. Tovar transportni kirib kelishini tashkil qilish. Bojxona rasmiylashtiruvi. Jismoniy shaxslarning bojxonada rasmiylashtiruvi. Valyuta va valyuta boyliklarini olib o'tish va